
TASHABBUSLI BYUDJET: Maktabgacha ta'lim tashkilotining eshik va romlari zamonaviylariga almashtirildi

"Tashabbusli byudjet" loyihasining birigchi mavsumiga 16-DMTTning eshik va romlarini zamonaviylariga almashtirish bo'yicha kiritilgan taklif ham soha mutaxassislari, ota-onalar va mahalla aholisi tomonidan qo'llab-quvvatlanib g'olib deb topilgan edi.

Ta'lim muassasasida 2 ta bino bo'lib, 3 ta guruhga mo'ljallangan bino kuz-qish mavsumiga tayyor holatga keltirilgan. 360 nafar tarbiyalanuvchiga mo'ljallangan ikki qavatli binoning eshik va romlari talabga javob bermas edi. Ayni kunlarda mazkur binoda olib borilayotgan ishlar yakuniga yetkazilmoqda.

Mazkur ishlar uchun 600 mln. so'mga yaqin mablag' ajratildi. Barcha eshik va romlar almashtirilib, xodimlar va bolajonlar uchun qulaylik yaratildi.

2023-08-17 12:50:58